

**MUMTOZ ADABIYOTNI TARG'IB ETISHDA ADABIY
MOSLASHTIRISHNING AHAMIYATI (“LISON UT-TAYR”NING
MOSLASHTIRILGAN MATNI MISOLIDA)**

*“Emas oson bu maydon ichra turmoq
“Navoiy”(?) panjasiga panja urmoq”*

Nodirbek Xabibillayev,

Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda yoshlarga mumtoz adabiyotni tanitish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Mumtoz adabiyotning inson ruhiga beradigan ma'naviy ozuqasidan mosuvo yoshlarning bugungi kundagi ayrim harakatlari oriflar ko'ksini chok etayotir! Ana shunday sharoitda oriflar yoshlarga mumtoz tarbiyani singdirishning yangi yo'llarini qidirib topmoqdalar. Mazkur maqolada ana shu masalalarni bayon etish bilan birga yangi bir kitobni tanishtirishni muallif o'ziga maqsad qildi.

Tayanch tushunchalar: Navoiy, nafs, hijron, istaganlar, ishq, Baxtiyor Mengliyev, Sharafiddin Sharipov, Lison ut-tayr, moslashtirish, mahorat.

Abstract: Today, introducing classic literature to young people is becoming an urgent issue. Some of the actions of young people today are shocking to scholars, as compared to the spiritual nourishment that classic literature gives to the human soul! In such conditions, scholars are looking for new ways to inculcate classical education in young people. In this article, the author aims to introduce a new book along with these issues.

Basic concepts: Navoi, nafs, emigration, those who want, love, Bakhtiyor Mengliyev, Sharafiddin Sharipov, Lison ut-Tair, adaptation, skill

Navoiy haqida manbalarda yuzida horg'inlik va charchoq alomatlarini sezilib turishi haqida o'qiganmiz. Ijodkordagi bu holatning sababi hijron ekanini uning yozgan asarlari orqali anglash qiyin emas. Bugungi yoshlardan “hijron nima?” deya so'ralsa, ularning javobi tayin: “Hijron – bu sevganingizdan yiroq bo'lish”. Aksariyat yoshlar hijronni ana shunday zohiriy ma'noda tushunadi. Haqiqatan ham, zohiriy ma'nodagi hijron – bu dunyoda yordan yiroq bo'lish holatidir. Botiniy ma'noda-chi?! Botiniy ma'noda hijron Allohdan yiroq bo'lishdir. Navoiy hijronni mana shu ma'noda tushungani o'z asarlari orqali anglashiladi. Insonning fikri-zikri nima bilan qattiq band bo'lsa, uning har bir gapirgan gaplari o'sha fikr bilan bog'lanaveradi. Ijodkorning asarlariga nazar solinsa, ana shu holatni tuyish mumkin.

Hijron muhabbatdan kuch oladigan ulug' tuyg'udir. Ya'ni muhabbat qanchalik kuchli bo'lsa, hijron ham shunchalik kuchli. Hijron insonning tashqi qiyofasi-yu ichki

olamiga, soʻzlariga-yu yurish-turishlariga, qisqa qilib aytsak, surati-yu siyratiga oʻz kuchini koʻrsatib qoʻyadi. Yaʼni insonning koʻrinishidan tortib soʻzlarigacha hijronning kuchini bilib olishimiz mumkin. Navoiyni anglashimiz uchun mana shu tushunchalardan xabardor boʻlishimiz kerakligini adibning oʻzi “Istaganlar” radifli gʻazalida ochiq-oydin aytib oʻtgan:

Ogʻzi shavqidin Navoiy itti, ani istar el

Yo Adam dashtida, yo Mulki fanodan istangiz

Yaʼni Navoiy shunday shavqqa toʻldiki, u itti (yoʻqoldi), bu dunyodan gʻoyib boʻldi. Ijodkor mana shu birgina baytning oʻzida Allohga boʻlgan ishq sababli bu dunyodan qoʻl uzganligini, jism bu dunyoda, lekin ruhiyat yoʻqlik dashtida, Allohga muhabbat qoʻygan insonlarning dashtida ekanligini tasvirlab bergan. Uning yozganlarini anglash uchun ana shu dashtga borish lozimligi keltirilgan. U dashtga esa hech bir transport eltib qoʻymaydi, piyoda yetib boʻlmaydi. Alloh omma orasidan ayrimlarinigina bu dashtga oʻzi “eltib qoʻyadi”. Bu maqomga koʻtarilish uchun esa, “Nafs” deb atalmish devga qarshi kurashish lozim. Unga qarshi kurashar ekanmiz, Alloh oldida bizning maqomimiz yuksalaveradi. Muxtasar qilib aytganda, inson nafsiga qarshi kurashar ekan qalbi poklanaveradi va ayrim hikmatlarni angelaydigan bosqichga yetib boradi. “Qalb koʻzi ochiq” deganda ham ana shu holat nazarda tutiladi. Ijodkorning yozmishlarini ana shu sabab hamma ham anglab yetavermaydi. Biz Navoiyni anglasak, oʻzimizni anglaymiz, hayotni anglaymiz, dinimizni anglaymiz va Allohni taniymiz! Shunday ekan, uni bugungi kun yoshlariga yetkazish muhim masala hisoblanadi.

Navoiy ijodi masalasi har yili va har davrda dolzarb boʻlib kelgan, albatta! Shu sababdan ham uning ijodi borasida yildan yilga yangiliklar koʻrishdan toʻxtamaymiz. Jumladan, uning gʻazallari sharhi va asarlari haqida yangi-yangi qarashlar koʻzimizni quvnatadi. Ayniqsa, H.Hojiahmedov tomonidan nashrga tayyorlangan, inson hayotida tutgan tasavvufiy ahamiyati bemisl boʻlgan “Xamsa”ning nasriy bayoni bugungi aksariyat yoshlarning asarni yaqindan tanishiga yordam bergani shubhasiz.

Navoiy ijodini bugungi kun yoshlariga tanitishda qilinayotgan mana shunday samarali ishlar qatorida filologiya fanlari doktori, professor Mengliyev Baxtiyor Rajabovichning “Lison ut-tayr” asari matnining bugungi kun tiliga moslashtirilgan varianti asarning badiiyatini saqlagan holda oʻquvchilar qalbiga singdirishda muhim oʻrin tutishi shubhasiz. Bu ijod mahsulining boshqalaridan farqi shundaki, unda badiiylik saqlanib qolgan. Mumtoz matn bugungi kun tilida bayon etilgan. Bu esa oʻquvchiga doston goʻzalligini toʻlaqonli his etish imkonini beradi.

Avvalo, “Lison ut-tayr” haqida ayrim maʼlumotlar eʼtiboringizga havola etishni lozim topdim. Ushbu asar Navoiyning umri soʻngida yozilgan boʻlib, adibning butun hayoti davomida yigʻgan hayotiy tajribalari ushbu asardan oʻrin olgan. Adib ijodidagi barcha eng kerakli oʻgitlar jilgʻalar misoli yigʻilib “Lison ut-tayr” deb atalmish daryoga

quyilganini anglash mumkin. Shu sababdan ushbu asar adib ijodida muhim rol o'ynaydi.

Albatta, asar g'oyalarining o'quvchilar qalbiga yetib borishida uning nasriy bayoni mualliflari Sharafiddin Sharipov va Vahob Rahmonovlarning xizmatlari ham katta. Ammo Baxtiyor Mengliyev tomonidan taqdim etilgan asarning bugungi kun tiliga moslashtirilgan varianti Navoiyning bayon uslubi saqlangani holda o'quvchilar qalbidan joy olishida bemisldir.

Asarning bugungi kunga moslashtirilishi bir qator ijobiy ahamiyatga ega. Jumladan, aholi orasida asar matnini tushunuvchi qatlamning kengayishi, asardan to'g'ri foydalanish (zero asardan foydalanmaslik uning ma'naviy "o'lish"iga olib keladi), adabiy merosning saqlab qolinishi kabilar fikrimizning dalilidir.

Bugungi kunda ushbu asarni to'laonli anglash afsuski ayrim insonlargagina xos. Buning sababi Navoiy davri tili bilan bugungi kun tilining farqidadir. Axir bizni besh asrdan ko'proq vaqt ajratib turibdi. Yuqorida Navoiy shaxsiyatiga xos ayrim jihatlarni uning asarlari orqali anglanishi haqida bejiz to'xtalib o'tmadik. Moslashtirilgan matnda ana shu holatlar ham bugungi kun tili orqali bayon etilib, barchaga tushunarli holatga keltirilganini ko'rishimiz mumkin. Quyida ana shu masalalar bayon etiladi.

E'tiboringizga asarning asl matni va moslashtirilgan matni o'rtasidagi o'zgarishlarni havola etamiz:

1	2
Jon qushi chun mantiqi roz aylagay, Tengri hamdi birla og'oz aylagay.	Jon qushi o'z sirlarini so'yladi, Tangri uchun maqto'v izhor ayladi.
Ulki maxluqot xalloqidur ul, Ondin o'zga foniyu boqiydur ul.	Borliq uchun mulki sohib erur U, Hamma o'tar, lekin boqiy turur U.
Soniye'kim chekti chun sun'i qalam, Ofarinish tarhini qildi raqam.	Zo'r mahorat birla tortdi u qalam, Har yaralmish olib undan chin raqam.
Aylagach doyrir to'quz aflokni, Qosir etti fahmidin idrokni.	To'qqiz aflok doiradek aylandi, Fahmi uchun idrok ko'zi boylandi.

Birinchi ustundagi baytlar "Lison ut-tayr"ning asosiy matnidan olingan, ikkinchi ustundagi baytlar esa moslashtirilgan matndir. Birinchi baytning o'zidayoq moslashtirilgan variantning farqini sezasiz. Baytdagi "roz" so'zi "sir" ma'nosida izohlangan. Mana shuning o'zi misra ma'nosining anglanishini osonlashtirgan. "mantiqi" so'zining "so'yladi" so'zi bilan almashtirilishi misraning mazmuni "ushlab qolinishi"da va keyingi misra bilan qofiyadoshlikning saqlanishida katta ahamiyatga ega. Keyingi misradagi "og'oz" so'zi "izhor" so'ziga aylantirilgan. Shuning uchun misra ma'nosi yanada tiniqlashgan.

Ikkinchi baytdagi "maxluqot xalloqidur" qismi "borliq uchun Mulki sohib erur" kabi o'girilgan. Maxluq – bu Xoliq tomonidan yaratilgan barcha voqelik yoki mavjudlikdir. Buni misrada "borliq" deya berilishi so'zga aynan mos keladi.

“Xalloqidur” qismini “Mulki sohib erur” deya o‘g‘irilishi ham mazmunga, ham keyingi misra bilan bo‘g‘inlar sonining teng bo‘lishiga xizmat qiladi. Keyingi misrada qo‘llangan “foniy” so‘zi “vaqtincha”, “o‘tkinchi” kabi ma‘nolarni anglatadi. Misrada keltirilgan “Ondin o‘zga foniyu” qismining “hamma o‘tar, lekin” kabi o‘g‘irilishi ham mazmun, ham avvalgi misra bilan bo‘g‘inlar sinxronligini ta‘minlagan. E‘tibor bering, “foniy” so‘zidan keyin kelayotgan “u” qismi zidlov bog‘lovchisi vazifasida kelgani misradan ayon bo‘lgani sabab u “lekin” so‘zi bilan moslashtirilgan matnda keltirilmoqda. Bu baytlardagi kichik detal ham e‘tibordan chetda qoldirilmaganligini anglatadi.

Uchinchi baytdagi “Soniye‘kim chekti chun sun‘i qalam” qismining “Zo‘r mahorat birla tortdi u qalam” kabi o‘g‘irilishi va ikkinchi misra tarkibidagi “Ofarinish” so‘zining “Har yaralmish” kabi o‘g‘irilishi bayt mazmunining o‘quvchi ongida yanada tiniqlashishiga xizmat qilgan.

To‘rtinchi baytning birinchi misrasidagi “doyir” so‘zining “doira” so‘ziga, “qosir etti” qismining esa “boylandi” so‘ziga o‘zgartirilishida mumtoz matnning bugungi kun tiliga moslashtirilishidagi ahamiyatli jihati yana bir bor namoyon bo‘lgan.

“Lison ut-tayr” aruzning *Ramal* bahrida yozilgan. Asarning vazni *Ramali musaddasi mahzuf*. Afoili: *foilotun-foilotun-foilun*. Bo‘g‘inlar 4+4+3 tarzida guruhlangan. Moslashtirilgan matnda ham misralar bo‘ginlarining ana shu tarzda guruhlanishini ko‘rish mumkin. Quyidagi holatga e‘tibor bering:

1	2
Xo-ja-i - o-/liy - si-fo-ti/ - ar-ju-mand, 4 + 4 + 3	O-liy - si-fat - /Xo-ja - ham-da -/ ar-ju- mand,
Shah - ba-ho-ul-/ha-q(i) - vad- -din-/ Naq-sh(i)-band 4 + 4 + 3	4 + 4 + 3 E-di - xalq-ning - o-ra-si-da - Naq- sh(i)-band 4 + 4 + 3

Bu ijodkordan alohida mehnat talab qiladi. Asl matnning ohori buzilmasligi uchun qilingan bu ish nafaqat uning originalligini saqlashga, balki asl matn bilan moslashtirilgan matnning ohangdoshligini ham ta‘minlashga xizmat qilgan.

Asarning qaysi qismiga nazar solmang, muallifning ijodkorlik mahoratini his etasiz. Quyidagi misralar o‘rtasidagi o‘zgarishlarga e‘tibor qiling:

Baxtiyorlar payg‘ambari Muhammad alayhissalom ta‘rifi:

1	2
Anbiyo sarxayli sultoni rusul, Kim erur oning tufayli juzvu kul.	Payg‘ambarlar yetakchisi Muhammad, Boru yo‘qning sababchisi Muhammad
Ulki Odamdin burun ul bor edi Ham nabi, ham sohibi asror edi.	Odam Ato bo‘lmasidan bor edi, Payg‘ambarlik sirri unga yor edi
Nuri mavjud ofarinishdin burun	Olti kunda yaralganda bu olam,

Kim edi xalqig‘a muddat olti kun.	Nur holida mavjud edi u har dam
Qoysi nur, ulkim topib yuz izzu noz, Ul kelib ma'shuqu, xoliq — ishqboz.	Shunday nurki, shon-shuhratga musharraf, Ma'shuq edi, Haqqa ishq chini sharaf

Birinchi baytdagi “Anbiyo” so‘zi barchamizga tanish. U moslashtirilgan matnda “Payg‘ambarlar” so‘zi sifatida keladi. Ammo “Sarxayl” so‘zining “Yetakchi” deya o‘g‘irilishi esa alohida e‘tiborga loyiq. *Xayl* so‘zi izohli lug‘atlarda *poda, otliq, otliq askar, guruh, toifa* kabi ma’nolarda keladi. Sar so‘zi bo‘lsa bosh degan ma’no anglatadi. Asl matn tarkibidagi “Sarxayl” so‘zining yuqoridagi ikki mustaqil ma’nosini saqlagan holda “Yetakchi” deya olish bu ijodkorning mahorati hisoblanadi. Ana shu baytning ikkinchi misrasi tarkibidagi “*juzvu kul*” so‘zining “*bor-u yoq*” deya o‘g‘irilishi ham bayt mazmunining o‘quvchi ongida yanada tiniqlashishiga turtki bo‘lgan. Qolgan misralarda ham moslashtiruvchining ijodkorlik mahoratini ana shu yo‘llar bilan anglashimiz mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, asarning moslashtirilgan varianti ijod mahsulidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Navoiy ijodini o‘rganishdan to‘xtamasligimiz lozim. Zero, nafaqat moddiy boyliklar, balki ma’naviy boyliklar ham foydalanilmaganida “o‘lish”ni boshlaydi. Ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lishimizda ularning merosi yo‘qolib ketmasligi uchun qilayotgan sa’y-harakatlarimiz asosiy rol o‘ynaydi. Shunday ekan, Navoiy ijodi borasida mana bunday istiqbolli harakatni boshlab berganlari uchun Mengliyev Baxtiyor Rajabovichga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz. Bunday samarali ishlar to‘xtab qolmasligidan umidvormiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулвохидов Э. Художественное выражение преемственности поколений трудах Чингиза Айтматова // “Scholar” scientific journal volume 1, issue 35, december, 2023. Scholar, 1(35), 150–160. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10442301>.
2. Абдулвохидов Э. Переплетение художественной и педагогической мысли в произведениях писателей-философов // International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education, Hosted from New York, USA. Jan. 28th 2023, <https://conferencea.org>.
3. Абдулвохидов Э. Место и значение художественной литературы в повышении эффективности деятельности учителя // International Conference on Innovations in Applied Sciences, Education and Humanities, Hosted from Barcelona, Spain, Jan. 29th 2023, <https://conferencea.org>
4. Абдулвохидов Э. Айтматов-публицист о педагогике // 10th-TECH-FEST-2022 International Multidisciplinary Conference Hosted from Manchester, England 25th Jan. 2023. <https://conferencea.org>

5. Абдулвохидов Э. Педагогическая мысль повести Чингиза Айтматова «Белый пароход» // Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, nazariy va amaliy strategiyalar tadqiqi № 4-sonli respublikasi ko'p tarmoqli, ilmiy konferensiya, 15-dekabr 2022-yil. Research of scientific research, innovation, Theoretical and practical strategies 4 th republic of multifield scientific conference December 15, 2022.
6. Egamberdiyeva S. BOLALAR FOLKLORIDA BSHIK QO'SHIQLARI POETIKASI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 17. – С. 61-67.
<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/4233/4052>
7. Mamajonovna S. E. O'ZBEK XALQ OG'ZALI IJODIDA ONALIK FOLKLORI POETIKASI //THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 13. – С. 67-73.
<https://interonconf.org/index.php/taare/article/view/2654/2375>
8. Mamajonovna E. S. O 'ZBEK VA TURK ALLALARIDA OTA OBRAZINING QIYOSIY TALQINLARI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 4. – С. 561-564.
9. Mamajonovna E. S. UMUMTURKIY TILLAR ALLALARIDA ALLITERATSIYA VA ASSONANS //TADQIQOTLAR. – 2024. – T. 32. – №. 2. – С. 46-50.
<http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/2184>
10. Dehqanva Guljahon Ahmadjonovna. (2023). NATIONAL -CULTURAL CHARACTERISTICS OF LEXICAL UNITS EXPRESSING THE ECONOMICAL CONDITION OF A PERSON'S LIFE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7951344>
11. Dehqanova G. A., Polvanova M. F. NATIONAL-CULTURAL SPECIFICITY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 159-164. <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/545/544>
12. Dehqanva Guljahon Ahmadjonovna. (2023). NATIONAL -CULTURAL CHARACTERISTICS OF LEXICAL UNITS EXPRESSING THE ECONOMICAL CONDITION OF A PERSON'S LIFE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7951344>
13. Tojiddinovna N. H. LINGUOCOGNITIVE FEATURES OF THE PUZZLES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 1099-1101.
<https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1922/1484>
14. Tojiddinovna N. X. LINGUO-COGNITIVE FEATURES OF PUZZLES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – T. 15. – №. 3. – С. 69-75.
<http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/3261>
15. Habibullayev, Nodirbek Nosirjon O'G'LI QOZOQ VA O'ZBEK TILIDAGI MODAL SO'ZLAR CHOG'ISHTIRMASI // ORIENS. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qozoq-va-o-zbek-tilidagi-modal-so-zlar-chog-ishtirmasi> (дата обращения: 01.02.2024).

16. Xabibillayev N. “SAB’AI SAYYOR” ASARIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI //TADQIQOTLAR. – 2024. – T. 32. – №. 2. – C. 57-61.
<http://www.tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/2186>
17. Komiljon o‘g O. Y. et al. CHARACTERISTICS OF LITERARY TRENDS OF AMERICAN LITERATURE //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1202-1208.
<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/download/9347/6053>
18. Komiljon o‘g O. Y. et al. GENERAL CHARACTERISTICS OF AMERICAN ROMANTICISM //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – Т. 32. – №. 2. – С. 85-91.
19. Shohsanam O. O’ZGA TILLI GURUHLARDA RUS TILI DARSLARIDA O’QUVCHILAR NUTQINI O’STIRISHDA INTERFAOL USULLARNING O’RNI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 15. – №. 3. – С. 76-78.
20. Madaminova M. MAKTAB O’QUVCHILARIGA INGLIZ TILIDA MATN O’QISHNI O’RGATISHNING INTERFAOL TEXNOLOGIYALARI //Ilm-fan va ta'lim. – 2023. – Т. 1. – №. 2.
21. Ahmadjanovna D. G. IMPROVING THE SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING STUDENTS FOR EFFECTIVE COMMUNICATION TECHNIQUES AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 15. – №. 3. – С. 81-88.
22. АБДУЛВОХИДОВ Э. РОМАН ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «И ДОЛЬШЕ ВЕКА ДЛИТСЯ ДЕНЬ...» КАК НАЧАЛО НЕЙРОДИДАКТИКИ //TADQIQOTLAR. – 2024. – Т. 32. – №. 2. – С. 29-38.